

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA FRAZEOLGIK BIRLIKLARNI O'RGANISH MASALALARI.**Uraimova Mohigul Qobuljon qizi**

Farg'ona davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti.

mohigulqobulovna@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola fraza, frazeologik birliklarning o'zbek tilshunosligiga kirib kelishi va o'rganilishiga bag'ishlangan. Unda o'zbek tilshunos olimlarining frazeologizmlarga oid ilmiy kitoblari va dissertatsiyalari tahlili berilgan. Tahlillardan ko'rinadiki, ushbu soha bo'yicha o'zbek tilshunosligida olimlar tomonidan ancha salmoqli ishlar olib borilgan.

Kalit so'zlar: frazeologiya, fraza, idiomatizm, turg'un birlik, frazeologizm, funksional.

Annotation: This article is devoted to the introduction and study of phraseological units in Uzbek linguistics. It provides an analysis of scientific books and dissertations of Uzbek linguistic scientists on phraseologisms. From the analysis, it can be seen that much more significant work has been carried out by scientists in Uzbek linguistics in this area.

Key words: phraseology, phraseology, idiomatism, stationary unit, phraseologism, functional.

Frazeologiya masalalarini o'rganish, bu sohani tadqiq etish, uning mustaqil lingvistik soha sifatida shakllanishiga sabab bo'ldi. Tilshunoslik fanini nazariy va amaliy jihatdan boyitdi. Lekin bundan frazeologiya sohasiga doir o'rganilmagan muammolar qolmadi degan xulosa kelib chiqarmaslik lozim. Frazeologizm atamasi turkiyshunoslikda ham turlicha ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qilgan. XIX asrda yashagan turkiyshunos olim Mirza Kozimbek o'sha davr an'alaridan kelib chiqib, rus tilida yozilgan boshqa tasviriy grammatikalarda bo'lganidek o'z asarida "faza" so'zini "jumla", "gap" ma'nosida qo'llagan (A. Abdullayev 1976. 5-son. 67-bet). Frazeologik birlikma deyilganda esa so'zdan yirik til birliklarini tushungan. Ozarbayjon tilshunoslari B.Cho'ponzoda va F.Og'azoda "Turk tili grammatikasi" asarida til ilmining bo'limlari haqida fikr yuritib, "Semasiologiya", "Stilistika" atamaları bilan birga o'sha davrda tilshunoslikda keng qo'llanishda bo'lgan "idiomatizm" atamasiga qarshi "idiotizm" so'zini ishlatgan. Frazeologiya turkiyshunoslikda nisbatdan yosh sohalaridan biridir, chunki uni sistemali ravishda o'rganish, frazeologik birliklarning semantik-grammatik funksional xususiyatlarini o'rganish XX asrning 40-50 yillaridan boshlandi. Frazeologik birliklarning funksional jihatdan so'zga yaqin ekanligini hisobga olib, ayrim tilshunoslar ularni leksik so'z birikmalari yoki leksik birliklar deb hisoblaganlar hamda sintaksis yoki yasaliş sohalarining o'rganish obyekti doirasiga kiritganlar. Jahon tilshunosligida frazeologizmlar keng va tor ma'noda tushuniladi (Виноградов В.В, 1977, С.8-23). Frazeologiyaning keng ma'noda tushunuvchi olimlar uning tarkibiga maqollar, matallar, aforizmlarni ham kiritadilar, tor ma'nodagi frazeologiya tarafdorlari esa frazeologik birliklarni ko'chma ma'noli turg'un birliklarni o'rganish bilan cheklanadilar. Rus tilshunosligida bo'lganidek, turkiyshunoslikda ham frazeologiya doirasini tor va keng ma'noda tushunish ham davom etmoqda. Frazeologizmlarga keng ma'noda barcha turg'un birikmalar (maqollar, matallar, idiomatik birliklar, idiomatik turg'un frazeologik guruhlari va juft so'zlar) kiradi.

40-yillarga kelib o'zbek yozma adabiyotidagi aforizm-hikmatli so'zlarni to'plash, nashr ettirishlar yo'lga qo'yila boshlandi. Bu davrda frazeologiyaga doir dastlabki ilmiy ma'lumotlar A.G'ulomov, U.Tursunov, A.K.Borovkov, V.Abdullayev, N.Mallayev kabi taniqli tilshunos va adabiyotshunoslarning turg'un birikmalarga oid tadqiqotlarida ko'zga tashlanadi. Faqat 50-yillarga kelib, Sh.Rahmatullaev, Ya.D.Pinxasov, A.Shomaqsudov, M.Xusainovlarning frazeologiyaga bag'ishlangan maxsus nomzodlik tadqiqotlari yuzaga keldi. Bu ishlarning natijasi sifatida buyuk Navoiyning hikmatlari va iboralarini, aforizmlarini to'plash va nashr ettirish ishlarini alohida qayd etish lozim. Va nihoyat, 1964-yilda Sh.Rahmatullaev "O'zbek tilining qisqacha frazeologik lug'ati"ni yaratdi. Shuningdek, Sh.Shomaqsudov va O.Dolimovning "Keng uyning kelinchagi" (Toshkent, 1961, 1964-yillar) nomli lug'at-kitobida tilimizning har xil xarakteridagi frazeologik materiallari yig'ilgan. 1976-yildan nashr etilib boshlangan "O'zbek

frazeologiyasidan materiallar” (X.Berdiyorov, R.Rasulov, B.Yo’ldoshev. Samarqand) uch qismli qo‘llanmalarida tilimizning ko‘plab frazeologik materiallari yig‘ilib, o‘quvchilarga taqdim etildi. O‘zbek tili frazeologik lug‘atshunosligidagi katta yutuqlarimizdan biri 1978-yilda nashr etilgan, prof. Sh.Raxmatullayev tomonidan yaratilgan “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” bo‘ldi. Lug‘atda frazeologizmlarning ma’no qirralarini izohlash bilan birga, ularning varianti, sinonimlari keltirilgan va misollar asosida izohlangan.

O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarni ilmiy tadqiq etishni ham birinchi bo‘lib prof. Sh.Rahmatullayev boshlab berdi. Endilikda tilshunosligimizda frazeologiya alohida til birligi sifatida o‘rganilmoqda, frazeologiyaning o‘rganish obekti u yoki bu tarzda belgilandi, ularning grammatik xususiyatlari u yoki bu tarzda o‘rganildi, stilistik imkoniyatlari to‘g‘risida katta-katta monografik ishlar maydonga keldi, frazeologik izohli lug‘atlar yaratildi. Bu kabi tadqiqotlar, shubhasiz, frazeologiyaning alohida til birligi bo‘lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Keyingi yillarda frazeologiyaning turli tomonlariga bag‘ishlangan monografik kuzatishlar, dissertatsiyalar, frazeologik lug‘atlar yuzaga keldi. Qon-qarindosh tillar frazeologizmlarini qiyosiy o‘rganish, qarindosh bo‘lmagan tillar frazeologizmlarini tipologik o‘rganish bo‘yicha ham muhim kuzatishlar olib borildi.

Hozirgi paytda esa frazeologiya tilshunoslikning fonetika, fonologiya, grammatika bo‘limlari qatori o‘z o‘rganish obektiga, tekshirish metodiga, maqomiga ega bo‘lgan alohida soha bo‘lib shakllandi.

O‘zbek tilshunosligida badiiy matnlarda frazeologizmlarning qo‘llanilishiga doir mukammal ilmiy – nazariy tadqiqot ishi bo‘lmasa-da, ammo keyingi yillarda amalga oshirilgan bir qancha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida bu masalaga jiddiy to‘xtalingan. Ana shunday tadqiqotlardan biri B.Yo’ldoshevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional – uslubiy xususiyatlari” deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasidir. Mazkur ishda badiiy matnlarda keltirilgan turli frazeologizmlarning funksional – uslubiy jihatlari asosiy e’tiborini qaratadi. Frazeologizmlarning ma’nosida ikkita qism mavjud:

- 1) ekspressiv baho bo‘yog‘i;
- 2) funksional – uslubiy bo‘yoq.

Frazeologizmlarning ekspressiv baho bo‘yog‘ida ma’no nozikliklari yuklanishini alohida ta’kidlaydi. Bu xususiyat tarkibida emotsionallik va ekspressivlik asosiy omil ekanligini, emotsionallik frazeologizmlarning turli xil his – tuyg‘ularini, shaxs va predmetlarga nisbatan subektiv munosabatlarni ifodalasa, ekspressivlik nutqning ta’sirchanlik xususiyati hisoblanishini izohlab o‘tgan. Bundan tashqari olim o‘z ishida badiiy matnlarda frazeologizmlardan uslubiy maqsadda ijodiy foydalanish usullari to‘g‘risida ham to‘xtalgan. Bunda individual – muallif o‘z usullari bo‘yicha frazeologizmlardan foydalanganda, bu birliklarning o‘zgarishiga sabab bo‘lishini ham tahlil etadi.

Frazeologizmlarni keng miqyosda tadqiq etgan olimlardan yana biri A.Mamatovdir. Olimning “O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari” nomli doktorlik dissertatsiyasi alohida ahamiyatga egadir. Bu ishda frazeologizmlarning shakllanish tamoyili xususida gap ketadi. Frazeologizmlarning semantik shakllanishida konnotativ ma’no va nominativ vazifa holatiga asosiy e’tiborini qaratadi. Olimning ta’kidicha, mavjud barcha frazeologizmlar konnotativ ma’noga ega bo‘lmaydi. Masalan: quloqchilik qilmoq, ma’qul topmoq, umid qilmoq, qo‘l qo‘ymoq kabilar faqat lug‘aviy ma’noga ega bo‘lib, nominativ vazifa bajaradi. Ammo aksariyat frazeologizmlar konnotativ ma’no komponentiga ega.

O‘zbek tili frazeologik birliklariga bag‘ishlangan yana bir tadqiqot K.Bozorboyevning “O‘zbek so‘zlashuv nutqi frazeologizmlari” mavzusidagi nomzodlik ishidir. Olim frazeologizmlarning o‘zgarishga uchrashi va yangilarining vujudga kelishida mumtoz va hozirgi badiiy adabiyotning ham beqiyos roli mavjudligini ta’kidlaydi.

Hozirgacha tilshunosligimizda tadqiq etilgan ilmiy – nazariy, amaliy ishlarga ko‘z yugurtirsak, bunda frazeologizmlar go‘yo chek-chegarasiz katta bir maydonni eslatadi. O‘zbek tilshunosligida

yuqorida sanab o'tgan ilmiy izlanishlarning asosi sifatida Sh.Rahmatullayevning ilmiy izlanishlari, muhim nazariy qarashlarini, albatta, ta'kidlab o'tishimiz kerak. Olim turli manbalarda frazeologiya termini o'rnida frazema terminini ham qo'llash mumkinligini yozadi. Frazema til qurilishining lug'at bosqichiga mansub ikkinchi lisoniy birlik bo'lib, bittadan ortiq leksemaning o'zaro semantik – sintaktik birlashuvi bilan tarkib topgan bo'ladi. Frazelogizm va leksema bir narsa yoki hodisani atasada, ya'ni atash semalari bir xil bo'lsa-da, ifoda bo'yoqlari bilan keskin farqlanib turadi. Frazelogizmining ko'pincha, ifoda semalarida obrazlilik, bo'yoqdorlik bo'rtib turadi. Aynan shu xususiyati bilan badiiy matnlarda muhim o'rin tutadi. Til birligi hisoblangan frazeologizmlarning badiiy matnlarda tadqiq va tahlil etilishi muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu o'rinda M.Yo'ldoshev tomonidan e'lon qilingan "Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari" o'quv qo'llanmasi va "Badiiy matnning lisoniy tahlili" nomli metodik qo'llanmalari ham diqqatga sazovordir. Mazkur asarlarda ham frazeologizmlarning qo'llanilishi masalasiga nazar tashlangan. Ayniqsa, bunda badiiy asarlarda faol qo'llanishda bo'ladigan frazeologik ma'nodoshlik masalasi yoritib berilgan. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zi o'ngida aniq va to'la gavdalanitirishda frazeologik iboralarning ma'nodoshligidan keng foydalaniladi. Toqati toq bo'lmoq – sabr kosasi to'lmoq, burni ko'tarilmoq – dimog'i shishmoq, yaxshi ko'rmoq – ko'ngil bermoq, ikki oyog'ini bir etikka tiqmoq – oyoq tirab olmoq, og'ziga tolqon solmoq – mum tishlamoq kabilar frazeologik ma'nodoshlikka misol bo'ladi. Jumla tarkibida kelgan ma'nodosh iboralar qahramon bilan aloqador biror-bir sifatni, xususiyatni detallashtirib, ikir-chikirigacha ko'rsatib tasvirlashga xizmat qiladi.

Lug'aviy birlik sifatida frazeologizmlar so'zlar bilan ham sinonimik munosabatda bo'la oladi. Masalan: xasis – qishda qor so'rasang bermaydi, boy-oshib-toshib yotmoq kabilar leksik-frazeologik ma'nodoshlik hisoblanadi. Badiiy matnda ma'nodoshlikning bunday turidan holatni bo'rttirib, atroflicha tasvirlashda foydalaniladi.

O'zbek frazeologizmlarining funksional – uslubiy xususiyatlari, iboralarning uslubiy qo'llanishi haqida B.Yo'ldoshev frazeologiya sohasiga salmoqli hissa qo'shdi. Olim frazeologizmlarning funksional – uslubiy xususiyatlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasida mazkur til birliklarining, nafaqat, og'zaki nutqda, balki badiiy tili asar tilida qo'llanilishi yuzasidan o'ziga xos fikrlarni bildirgan. Tilshunos I.Qo'chqortoyev esa, yozuvchi, so'z ustasi A.Qahhorning frazeologizmlardan foydalanish mahoratini o'rganib, "Abdulla Qahhorning frazeologik novatorligi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Dissertatsiyada yozuvchining frazeologizm yaratish mahoratini hamda ma'no qirralarini ilmiy asoslab bergan.

O'zbek tili frazeologizmlarini so'z san'atkorlari tili va uslubi doirasida o'rganish salmoqli natijalarga olib keldi. Bu narsa mumtoz adabiyot, hozirgi adabiyot, gazeta tili va folklor asarlari matnlari asosida amalga oshirilmoqda. Frazelogizmlar haqidagi ishlarda olg'a surilgan nazariy va amaliy fikrlar o'zbek adabiy tili bo'yicha yozilgan darslik-qo'llanmalarda ham o'z aksini topgan va topmoqda.

Frazelogizmlar biror narsa-hodisani atash, nomlash vazifasiningina bajarmaydi, balki shu predmet yoki hodisani aniqlashtirib, ularni emotsional va obrazli tarzda baholaydi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklar va ular bilan bog'liq hodisalar, ularning ma'naviy va vazifaviy xususiyatlari murakkab, sermunoza bo'lib, ular bir necha tadqiqot ishlarini talab qiladi. Ular bir tomondan til birligi sifatida muayyan tushunchani ifodalash xususiyatiga ega bo'lsa, ikkinchi bir tomondan har bir xalqning ko'p asrlik turmush tarzi, madaniyati, ma'naviyati, urf – odatlari va an'analarning og'zaki nutq va badiiy asarlarda aks ettiruvchi, shu bilan bir paytda badiiy matnda muayyan holatni, voqelikni obrazli, ta'sirchan bo'lishini ta'minlovchi vosita ham hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev. A, (1976) "Frazelogizmlarning ekspressivlik xususiyati" T.: O'TA.5-son. –B.67.

2. Bozorboyev K. (2001). "O'zbek so'zlashuv nutqi frazeologizmlari" Filol.f.nomz...diss. – Samarqand.
3. Mamatov A. (1999). "O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari" Filol.f.doktr...diss. Toshkent, B. 29.
4. Niyazmetova, D. (2012). "Ingliz tilida oziq-ovqat komponentli frazeologizmlarning lingvistik tadqiqi(Bibliya materiallari asosida)". BuxDU Ilmiy Axboroti. 4-son. -B.43
5. Rahmatullaev Sh. (1978). "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati". Toshkent: O'qituvchi, B. 11.
6. Rahmatullaev Sh. (1970). "Nutqimiz ko'rki". Toshkent: Fan, B. 18.
7. Yo'ldoshev B. (1993). "Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional – uslubiy xususiyatlari", Filol.f.doktr...diss. – Toshkent, B. 18.
8. Виноградов В.В. (1977). "Лексикология и лексикография".-С.8. 23